

## YOZUV – MADANIY TARAQQIYOT MAHSULI. YOZUV TURLARI VA BIRLIKLARI

*Nargiza Pazlitdinova*

*Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)*

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada ochiq dars uchun qo'yilgan talablar hamda uning ilmiy sohani rivojlantirish va o'zaro metod almashuvdagi tutgan ahamiyati haqida ma'lumot keltirilgan. Ochiq ma'ruza darslarini tashkillashtirish filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) Nargiza Pazlitdinova tomonidan "Yozuv – madaniy taraqqiyot mahsuli. Yozuv turlari va birliklari" mavzusida tashkil etilgan darsi misolida yoritib berilgan.

**Kalit so'zlar:** ochiq dars, pedagogik mahorat, "Aqliy hujum", "Qora quti", "Binar ma'ruza" metodlari.

**Абстрактный.** В данной статье представлена информация о требованиях к открытому классу и его значении в развитии научной сферы и взаимного обмена методами. Организация открытых лекционных занятий «Письменность – продукт развития культуры» доктора философских наук (PhD) Наргизы Пазлитдиновой. Объясняется на примере урока, организованного по теме «Виды и единицы письма».

**Ключевые слова:** открытый урок, педагогическое мастерство, методы «Мозговой штурм», «Черный ящик», «Бинарная лекция».

**Abstract.** This article provides information about the requirements for an open class and its importance in the development of the scientific field and mutual method exchange. Organization of open lecture classes "Writing is a product of cultural development" by Doctor of Philosophy (PhD) Nargiza Pazlitdinova. It is explained on the example of a lesson organized on the topic "Types and units of writing".

**Key words:** open lesson, pedagogical skills, "Brainstorming", "Black box", "Binary lecture" methods.

Muayyan fan bo'yicha professor-o'qituvchilar va mutaxassislar ishtirokida turli shaklda o'tkaziladigan darslar ochiq darslar deb ataladi. Ochiq darslarni o'tkazishdan maqsad: professor-o'qituvchilarni tegishli fan, texnika va texnologiyalar sohalari bo'yicha jahonda erishilgan yutuq va yangiliklardan xabardor bo'lishlariga erishish va ular asosida zamonaviy pedagogik va axborot kommunikatsion texnologiyalardan samarali foydalangan holda darslarni tayyorlash, o'tkazish va shu tariqa ta'lim sifatini oshirish hamda tayyorlanayotgan kadrlarning raqobatbardoshligini ta'minlashdan iboratdir. O'quv jarayonini tashkil qilishda asosiy shakli dars hisoblanadi. Dars deb, bir xil yoshdagi o'quvchilardan bitta guruhga o'qituvchi rahbarligiga aniq mavzu aniq

maqsad, aniq reja, aniq rejim va o'quv vositalari yordamida tashkil etilgan mashg'ulotga tayyorgarlik tashkil etiladi. Demak, dars ta'limning asosi bo'lib hisoblanadi, chunki darsda asosiy ta'lim tarbiyaviy vazifalar hal etiladi.

Mana shunday talablardan kelib chiqib 2023-yil 27-oktabr kuni University of Business and Science ijtimoiy fanlar kafedrasida katta o'qituvchisi, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) Nargiza Pazlitdinova tomonidan o'zbek tili va adabiyoti yo'nalishi kunduzgi ta'lim shakli 1-kurs talabalariga tilshunoslik asoslari fanidan "Yozuv – madaniy taraqqiyot mahsuli. Yozuv turlari va birliklari" mavzusida ochiq ma'ruza tashkil etildi. Ushbu ma'ruza mashg'uloti ta'limdagi eng so'nggi metod va texnologiyalardan foydalangan holda intensive usulda tashkil qilindi.

Avvalo, darsning tashkiliy qismida talabalar davomati aniqlandi, "Axborot" metodida dunyo va mamlakatimizda sodir bo'layotgan yangiliklar, asosan fan va sohaga oid yangiliklar bilan tanishtirildi. Talabalar tomonidan "Ozbek tilining izohli lug'ati"ning yangi nashri, hamda "Lotin yozuviga asoslangan o'zbek alifbosida shu paytga qadar ko'plab murakkabliklarga sabab bo'layotgan to'rtta harf yuzasidan olib borilayotgan islohot"lar haqida axborot berildi.

"Tarixda bu kun" metodi asosida 27-oktyabr sanasi bilan bog'liq muhim tarixiy voqealar bilan tanishtirildi.

"Aqliy hujum" metodi asosida talabalarga "Ilm nima?" yoki "Ilm haqida qanday hikmatli so'z yoki maqollarni bilasiz?" degan savollar berildi.

"Qora quti" metodi asosida o'tilgan mavzular yuzasidan bilimlar mustahkamlanadi.

Metodni amalga oshirishda talabalarga tilshunoslik fanining o'rganish obyekti va predmeti, til va nutq dixotomiyasi, til va tafakkur munosabatlariga oid birliklarni izohsiz yozish topshirig'i berildi. Bir daqiqa vaqt davomida eng ko'p ma'lumot yozgan talaba g'olib sanalib, yozgan ma'lumotlarini o'qib eshittirdi va qolgan talabalar tomonidan ma'lumotlar izohlandi.

Yangi mavzu bayonida "Binar ma'ruza" metodidan foydalanildi. Bunga ko'ra o'qituvchi va mavzuni atroflicha o'rgangan talaba birgalikda ma'ruzani amalga oshirildi. Bunday mashg'ulotning olib borilishi ikki vakil: o'qituvchi va metodist; o'qituvchi va o'quvchi; taklif etilgan mutaxassis va o'qituvchi; o'qituvchi va tyutor (maslahatchi) o'rtasidagi interfaol suhbat, bahs-munozara va axborotlar almashinuvini namoyon qiladi. Jarayonni bunday tashkillashtirishdan ko'zlangan asosiy maqsad yangi o'quv ma'lumotlari va axborotlarini ikki mutaxassis yoki ishtirokchi nuqtayi nazarlarini taqqoslash orqali yoritib berishdan iborat.

Interfaol usullar yordamida darsning kirish qismi tashkillangan bo'lsa, so'ngra talabalarga "Yozuv – madaniy taraqqiyot mahsuli. Yozuv turlari va birliklari"deb nomlangan yangi mavzu bayoni taqdim qilindi.

“Tilning butun imkoniyatlari nutqda ifodasini topadi. Nutqning og’zaki va yozma shakli bo‘lib, yozma nutq yozuv orqali namoyon bo‘ladi. Yozuv ma’lum bir tarixiy jarayon mobaynida aloqa- munosabatning muhim vositasi bo‘lib shakllanadi. Yozuvning tarixiy ahamiyati quyidagilarda aks etgan.

1. Yozuv ma’lum tarixiy jarayon natijasida shakllanadi va kishilar orasidagi bivosita aloqa-munosabat vositasi sifatida ijtimoiy manfaatlar uchun xizmat qiladi.

2. Kishilik jamiyati erishgan barcha ma’naviy yutuqlar yozuv orqali avloddan avlodga yetkaziladi.

3. Yozuv uchun masofa va vaqt ahamiyatsizdir.

4. Yozuvning xabar yetkazish imkoniyati tufayli turli masofadagi axborotlar umumiy ma’lumotga aylanadi.

5. Yozuv kishilik jamiyati taraqqiyotining muayyan bosqichlarini, xalq tarixi, etnografiyasini adabiyot va san’at tarixini, tilning tarixiy taraqqiyot bosqichlarini o‘rganishda muhim ahamiyat kasb etadi. Yozuvsiz tilning va xalqning tadrijiy taraqqiyotini o‘rganib bo‘lmaydi”, deya ta’kidlanadi ma’ruza matnida.

Yangi mavzu yuzasidan o‘zlashtirilgan bilimlar “A4 format” metodi asosida mustahkamlandi. Bunga ko‘ra talabalar o‘tirgan har bir qatorga A4 formatdagi qog‘ozlar tarqatiladi. O‘tilgan mavzu yuzasidan o‘rgangan ma’lumotlarini bir-birini takrorlamagan holatda yozib orqasidagi talabaga uzatish topshirig‘i beriladi. Har bir qatorning oxiridagi talaba taqdimot bilan tanishtiradi. Eng avval va zarur ma’lumotlarni yoza olgan qator g‘olib hisoblanadi. Bu usullarni dars jarayoniga qo‘llashdan ko‘zlangan asosiy maqsad–har bir talabaning darsdagi faolligini oshirish hamda yangi mavzuni qanchalik yaxshi o‘zlashtirganini aniqlashdan iborat.

Qolaversa, dars davomida faollik ko‘rsatgan talabalarga rag‘batlantirish uchun kartochkalar taqdim etildi va rag‘bat kartochkalari olgan talabalar baholanadi.

“Darsni baholashning esse usuli” asosida talabalarning o‘tilgan dars yuzasidan fikr va mulohazalarini bilib olindi. Dars so‘ngida talabalarga mavzuni to‘liq o‘zlashtirishlari va seminar mashg‘ulotlariga puxta tayyorgarlik ko‘rishlarini ta’minlash maqsadida o‘tilgan mavzuga aloqador bo‘lgan Abduazizov A. “Tilshunoslik nazariyasiga kirish” (Toshkent: Sharq, 2010. – 176 b.), Irisqulov M.T. “Tilshunoslikka kirish” (Toshkent: Yangi asr avlodi, 2009. – 264 b.) Uluqov N. “Tilshunoslik nazariyasi” (Toshkent, 2016. – 178 b.) kabi taniqli filolog oilmlarning ilmiy asarlari tavsiya etildi.

Ochiq darslarning rejasini tuzishda, darslarning barcha turlarida samaradorligiga erishish o‘quv jarayonini vositalariga ahamiyat berish talab qilinadi. Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) Nargiza Pazlitdinova tomonidan “Yozuv – madaniy taraqqiyot mahsuli. Yozuv turlari va birliklari” mavzusida tashkil etilgan ochiq ma’ruza ham rejalarining izchilligi va mavzuni keng qamrovda yoritib berganligi bilan ahamiyatga molikdir.

Ochiq darsni baholashda ilg`or texnologiyalar joriy etilgan yirik korxonalar dan taklif etilgan mutaxassislar, oliy ta`lim muassasalari professor-o`qituvchilari va mutaxassislarining taqrizlari asosiy hisoblanadi. Ushbu tashkillashtirilgan darsga ham kuzatuvchi sifatida taklif etilgan professor-o`qituvchilar ijobiy baho berishdi hamda o`z tajribalaridan kelib chiqib dars jarayonini yanada takomillashtirish uchun taklif-mulohazalar kiritishdi. Jumladan:

“Pazlitdinova Nargiza Zuriddinovnaning o`zbek tili va adabiyoti yo`nalishi 1-kurs talabalariga tilshunoslik asoslari fanidan “Yozuv – madaniy taraqqiyot mahsuli. Yozuv turlari va birliklari” mavzusidagi ochiq dars ishlanmasi 2 soatlik ma`ruza mashg`uloti uchun mo`ljallangan bo`lib, yillik o`quv reja va dastur asosida bajarilgan.

Dars ishlanmasi zamon talablari bilan uyg`unlashgan holda yoritilgan bo`lib, darsda “Axborot”, “Tarixda bu kun”, “Ilm hikmati”, “Aqliy hujum”, “Fikriy hujum”, “Binar ma`ruza”, “Qora quti”, “A4 format” va “Darsni baholashning esse usuli” kabi ta`limiy metodlardan foydalanish ko`zda tutilgan.

Darsda sohaga oid yangiliklar, yozuvning madaniy taraqqiyot mahsuli sifatidagi ahamiyati va xususiyatlarini qiziqarli hayotiy voqealar asosida yoritish, talabalarni ilm olishga bo`lgan qiziqishi va kitobxonlikka bo`lgan munosabatlarini rag`batlantirish kabi masalalarga alohida e`tibor qaratilgan.

Ushbu dars ishlanmasidan o`zbek tili va adabiyoti yo`nalishi 1-kurs talabalarining ma`ruza mashg`ulotlarida foydalanish uchun tavsiya etaman”.

*Namangan davlat universiteti o`zbek tilshunosligi kafedrasida dotsenti v.b.  
filologiya fanlari bo`yicha falsafa doktori: **B.Yunusova***

“Dars ishlanmasida darsning ta`limiy, tarbiyaviy, rivojlantiruvchi maqsadlari hamda rejasi mavzuga muvofiq amalga oshirilgan. Darsda fanlararo integratsiya, muammoli ta`lim texnologiyalari amaliyotga tatbiq etilgan.

Muallif – talabalar ongida yozuvning insoniyat madaniy taraqqiyotida tutgan o`rni, ahamiyati, yozuv turlari va birliklari yuzasidan atroflicha ma`lumot berish, talabalarining ilm olishga bo`lgan muhabbatini va kitob o`qishga ishtiyoqini oshirish, talabalarni kasbga yo`naltirish, ustozlik va olimlik maqomlarining naqadar yuksak darajada ekanligi yuzasidan qarashlarini rivojlantirish maqsadlarini oldiga qo`ygan.

Dars mazmuni tilshunoslik asoslari fanining zamonaviy yondashuvlariga va ushbu masala bo`yicha eng yangi adabiyotlarga asoslangan. Ko`rsatilgan masalalar juda dolzarb va fanning zamonaviy rivojlanish darajasiga mos keladi.

Ushbu dars ishlanmasini o`zbek tili va adabiyoti yo`nalishi 1-kurs talabalarining ma`ruza mashg`ulotlarida foydalanishga tavsiya etaman”.

*University of Business and Science ijtimoiy fanlar kafedrasida dotsenti v.b.  
filologiya fanlari bo`yicha falsafa doktori: **X.Xashimova***

Ochiq dars muhokamasida ko'rsatilgan ijodiy takliflar bilan boyitilgan holda qayta ishlab chiqildi, ta'lim muassasasi metodik kengashi tomonidan tasdiqlanib ommalashtirishga tavsiya qilindi. Kafedraning taklifiga binoan ochiq dars tahlili natijasi o'quv jarayoniga joriy etilishi kerak bo'lgan ilg'or pedagogik tajriba sifatida qabul qilindi. Hozirda universitet professor-o'qituvchilarining aksariyat qismi yuqoridagi metod hamda usullardan foydalangan holda ochiq darslarni tashkil qilishmoqda.

### Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasining "Kadrlar tayyorlash milliy dasturida"gi Qonuni // Oliy ta'lim: Meyoriy – huquqiy va uslubiy hujjatlar to'plami. – Toshkent: 2004. – B.16-17.
2. Abduqodirov A.A. Akademik litsey va KHK o'qituvchilarini malakasini oshirishda masofali o'qitish metodikasi // Uzlüksiz ta'lim. – Toshkent: 2004. - № 5. – B.3-12.
3. Ziyomhammadov B. Pedagogika. O'quv qo'llanma. – Toshkent:
4. Maxmutova G. Pedagogika fanlarini o'qitish jarayonida talabalarni ma'naviy shakllantirish texnologiyasi // Xalq ta'limi. – Toshkent: 2004. - №1. – B. 40-43.
5. Musaev U. Ta'lim jarayonini erkinlashtirish prinsiplari // Xalq ta'limi. – Toshkent: 2005. - № 4. – B. 4-10.
6. Ximmatqulova, N. T. (2021). DARS JARAYONIDA O'QUV-DIDAKTIK MATERIAL HAMDA VOSITALARNI TAYYORLASH VA ULARDAN FOYDALANISH. Academic Research in Educational Sciences, 2(11), 1317-1325.